UZLUKSIZ TA’LIMDA ANIQ FANLARNI O‘QITISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

J.A.Ro‘zimatov - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
M.U.Savriddinova - Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida aniq fanlarni o‘qitish, dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida gap boradi. Zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonlarining tashkil etilishi dars samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, aniq fanlar, matematika, boshlang‘ich sinf, innovatsion texnologiya, dars, ta’lim, pedagog, o‘quvchi, maktab, zamonaviy, metod, ta’lim tizimi.

Uzluksiz ta’lim tizimida aniq fanlarni o‘rganish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonlarida aniq fanlarni o‘qitish, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga yetkazib berish, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonlarining samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda butun dunyoda, shu jumladan, bizning yurtimizda ham bir qancha sohalarda keskin rivojlanishlar sodir bo‘lmoqda. O‘zbekistonda kundan kunga rivojlanish ta’lim sohasini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Ko‘plab chet davlatlarining ta’lim tizimlari mamlakatimizga olib kirilib, shular asosida darslar tashkil qilinmoqda. Darsliklar ham rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlari asosida chop etilmoqda.

O‘quvchilar fanlarni qay darajada o‘zlashtirishlari, avvalambor, boshlang‘ich sinflarda olgan bilimlariga bog‘liq. Uzluksiz ta’lim tizimini imorat deb oladigan bo‘lsak, boshlang‘ich ta’lim uning poydevoridir. Poydevor qanchalik pishiq bo‘lsa, imorat shunchalik mustahkam bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qator fanlar ichida matematika fani anchagina qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Buning boisi darsliklarning murakkabligidir. Hozirgi kun matematika darsliklari nafaqat o‘quvchilarni balki o‘qituvchilarni ham o‘ylantirib qo‘ymoqda. Malaka amaliyoti davrida olib borilgan kuzatishlar davomida biz o‘qituvchi va o‘quvchilar matematika faniga yanada ko‘proq e’tibor qaratishlari kerakligiga amin bo‘ldik. Bugungi kunda har bir o‘qituvchi, har bir pedagog o‘z ustida har kuni ishlamas ekan dars jarayonidan kutilgan samaradorlikka erishish mushkul.

Aniq fanlarni, shu jumladan, matematika fanini o‘qitish bugungi kunda zamonaviy yondashuvni talab etadi. Darslarni standartlarga mos ravishda tashkil etish, o‘quvchilar bilim darajasini oshirishga yo‘naltirilgan usullardan, interfaol metodlardan foydalanish pedagogdan o‘ziga xos mahorat, bilim hamda kasbiy ko‘nikmalarni talab etadi. Biz bilamiz, bugungi kunda darslar natijadorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish keng tarqalmoqda. Aynan boshlang‘ich sinflarda matematika darslari samaradorligi bilan bir qatorda o‘quvchilar qiziqishini oshirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida dars jarayonida “Tangram” metodidan foydalanishni ko‘rib chiqamiz.

“Tangram” metodi. Tangram — bu qadimiy Xitoydan kelib chiqqan matematik o‘yin bo‘lib, u matematika asoslarini o‘rganishda juda samarali ko‘rgazmali vosita hisoblanadi. Tangram to‘plami odatda yettita geometrik shakldan iborat bo‘ladi: 5 ta kichik uchburchak, 1 ta kvadrat va 1 ta parallelogramm. Ushbu shakllar birlashtirilganda turli xil rasmlar, figuralar hosil qilinadi. Tangram yordamida bolalar shakllarni tanib olishni, ularning xususiyatlarini (burchaklar, tomonlar) o‘rganishni osonlashtiradi. Masalan, uchburchakning

qanday turlari borligi, kvadratning qanday shakl ekanligi tangram bo'laklari orqali aniqroq tushuniladi. Bolalar shakllarni birlashtirib turli rasmlar yasash orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu esa matematikani quruq qoidalar emas, jonli, qiziqarli fan sifatida qabul qilishga yordam beradi. Tangramda shakllarni moslashtirish, mos keladigan qismlarni topish orqali bolalar muammoni bosqichma-bosqich yechishni o'rganadi. Bu, ayniqsa, matematikada mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Tangram bo'laklarini qo'l bilan ushlash va joylashtirish bolalarning diqqatini jamlab, o'rganishni faol qiladi.

Tangramni boshlang'ich sinfda dars jarayonlarida qo'llash. Dars boshida bolalarga tangram bo'laklarini ko'rsatib, har birining nomi, shakli va o'lchamini aytish mumkin. Masalan, "Bu kichik uchburchak, bu - kvadrat." 2-3 shakldan foydalanib, masalan, kvadrat yoki katta uchburchak yasashni o'rgatish. Bu jarayonda bolalar shakllarni qanday birlashtirishni o'rganadi. Keyinchalik bolalar 7 ta bo'lakdan foydalanib, hayvonlar, uy, odam rasmi kabi qiziqarli figuralar yasashga o'tadilar. Bu o'yin sifatida darsni yanada qiziqarli qiladi.

"Tangram" metodi boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda ko'rgazmali va interfaol vosita sifatida keng qo'llaniladi. U bolalarga geometriya asoslarini tushunishga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va o'rganishni qiziqarli qilishga yordam beradi. Shuningdek, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi va o'qituvchi uchun darsni samarali tashkil etishda qulay vosita hisoblanadi.

Undan tashqari bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarga ham boshlang'ich sinfdan boshlab e'tibor kuchaymoqda. O'quvchilar 1- yoki 2-sinfdan boshlab innovatsion texnologiyalardan bemalol foydalana olishadi. Bu bolaning kelajakda har taraflama salohiyatli, yetuk kadr bo'lib yetishishiga birinchi qadamlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda, albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rni beqiyos. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qib tushunishdan ko'ra ko'rganlarini ko'proq tushunib, eslab qolish qobiliyatlari kuchliroq bo'ladi. Bolaning ko'rgan narsasi ko'proq esida qoladi hamda ko'rganlari orqali bolada tasavvur ortadi. Shuning uchun ham bugungi kunda dars jarayonlarida elektron doskalardan, televizorlardan foydalanilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarga zamonaviy vositalar yordamida o'qish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar va boshqa elektron qurilmalar orqali o'quvchi istalgan joyda va vaqtida darslardan foydalanishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilar uchun yangi talablarni qondirishga yordam beradi. Internet orqali o'quv materiallariga to'g'ri va oson kirish mumkin bo'lib, ma'lumotlarni tez va qulay qidirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni (2019-yil 29-aprel, PF-5712):

2. Savriddinova Mexrinoz Ulug'bekovna. (2024). METHODOLOGICAL ANALYSIS OF MATHEMATICS TEACHING IN PRIMARY CLASSES. https://doi.org/10.5281/zenodo.11157919

3. Ro'zimatov, J., Norbo'tayeva, O., Savrullayeva, M., Cho'liyeva, A., & Usmonova, G. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(4), 480–484. https://doi.org/10.5281/zenodo.11091877